

OILADAGI AJRASHISHLARNING OQIBATLARI VA ULARGA YECHIM

Samatova Sug‘diyona Sadriddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti

3 - bosqich talabasi.

sagdiyanasadriddinovna@gmail.com

Annotatsiya : Jamiyatda mavjud bo‘lgan va kundan - kunga avj olib borayotgan muammolardan biri ajrimning kelib chiqish oqibatlarini o‘rganish. Oila institutini rivojlantirish, er-xotin munosabatlarining dars ketishiga olib kelayotgan jarayoni tahlil etish va ajrimlarni oldini olish uchun takliflar. Hozirgi kunga qadar taqdim etilgan statistik ma’lumotlarni ilmiy va ijtimoiy analizini amalga oshirish. Jamiyatda oilaning o‘rni qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini namoyon etish.

Kalit so‘zlar : oila, ajrim, nikoh, er-xotin muammosi, salbiy oqibatlar, farzand, farzand tarbiyasi, parokandalik, ruhiy va jismoniy zarar, aralashuv, ziddiyatlar.

KIRISH

Ajrim muammosi hozirgi kunga kelib eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ajrashish holatlarini o‘rtib borayotgani ham keng jamoatchilik e’tiborini o‘ziga jalb qilmoqda.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, oila – nafaqat bir yutning, balki umuminsoniyatning siyosati hisoblanadi. Nega davlat siyosati deganda, bashariyatning tirikligi, uzluksizligi – oiladan! Axir oilaning eng birlamchi va bevosita vazifasi, ma’naviyat tili bilan aytganda, muqaddas vazifasi – insoniyatning zanjirini sog‘lom va iqtidorli avlodlar bilan ulab borishdan iborat. Bu – hamma millat, hamma davlat, hamma xalqlar zimmasidagi sharafli vazifa. Oila muqaddas va buyuk ne’mat

hisoblangani uchun ham juda ko‘p donishmandlar oilani tuzishni mamlakatni tashkil qilish kabi muhim deb biladilar. Oilaning barqarorligi va baxtli hayoti – shu mamlakatning yuzi, obro‘yi deb qaraladi. Taraqqiy etgan davlatlarning o‘z mamlakatlarida oilaga bunday katta e‘tibor berishi, turli yo‘llar bilan uning nufuzini ko‘tarishga intilishi also bejiz emas. Oila jamiyatning muhim tarkibiy qismi demakdir. Oilaning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat hayotidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy munosabatlar bilan bevosita bog‘liq ravishda amalga oshgan. Jamiyat hayotida bo‘lib turadigan o‘zgarishlar, kishilarning turmush tarzi, yashash va mehnat qilish sharoitlari, milliy ahloq me‘yorlari, psixologiyasi, diniy e‘tiqodlari ham oilaviy munosabatlarning ahloqiy, huquqiy, ijtimoiy mezonlariga ta‘sir ko‘rsatgan.

Oila muammosiga bag‘ishlangan masalalarni o‘rganar ekanmiz, unda oilaviy munosabatlarning huquqiy, axloqiy asoslari, ota-onalarning jamiyat va farzandlari oldidagi burchi masalasi doim olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Shuningdek, yoshlar oilaning buyuk ma‘naviyat, qadriyat, burch va mas‘uliyat ekanini anglab yetmoqlari zarurligi, yigit va qizlar mustahkam oilani shakllantirish borasidagi milliy an‘analarimiz, qadriyatlarimiz haqida yoshligidan to‘la va to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishlari lozimligini takidlaganlar. Chunki, oiladagi hayot, ota-onaning bir-biriga munosabati ham ana shunday tushuncha va tasavvurlar shakllanishining asosiy shartlaridandir. Jamiyat o‘rtasida oila institutini rivojlantirish va oilaviy munosabatlarni mustahkamlash uchun nafaqat O‘zbekistonda balki ko‘plab chet davlatlarida ham hozirgi kunga qadar katta-katta ishlab amalga oshirilib kelmoqda.

Oila munosabatlari bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan ajrim sonlari kundan-kunga ortib bormoqda, statistik ma‘lumotlarga qaraganda, agentlik keltirayotgan raqamlar o‘tgan yilgisi bilan taqqoslanganda 24 foizga oshgani ko‘rinadi. Ya‘ni, 2022-yilda O‘zbekistonda jami 48 734 ta oila nikohdan rasman ajrashgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021-yilda 39 227 tani tashkil qilgan. Bu esa 2022-yil uchun har ming nafar aholiga to‘g‘ri keladigan nikohdan ajralishlar soni – 1,4 promillega to‘g‘ri kelishini anglatadi. Hududlar kesimida nikohdan ajralish holatlari soni eng ko‘p – Toshkent shahri – (5 901 ta) hamda Farg‘ona (5 445 ta) va Toshkent (5

098 ta) viloyatlarida kuzatilgan. Ajrimlar orqali qanchadan qancha yosh bolalar otasi yoki onasidan alohida yashashga majbur bo‘lmoqdalar. Bu ularning ham ma’naviy ham ruhiy ziyon ko‘rishlariga va kelajakda ham ota-onalari qilgan hatolarini takrorlashga qaysidur ma’noda sabab bo‘lishi mumkin. Ikki tomoning qilgan hatosi yoki oddiygina narsalar tufayli kelib chiqqan ziddiyatlari ham hozirda ajrim bilan yakunlanmoqda, bu juda achinarli holat desam mubola’ga bo‘lmaydi. Oilada ota yoki onaning yo‘qligi farzand uchun haqiqatdan ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi, bu turli hil yo‘llar bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Bunga yaqol misol tariqasida voyaga yetmaganlar o‘rtasida sodir etilayotgan jinoyatlar bo‘lishi mumkin, voyaga yetmagan o‘rtasida jinoyatlarni sodir etayotganlarning katta qismi oiladagi yetishmovchilik tufayli jinoyat yo‘liga kirishga majbur bo‘lganlar.

Ajrimlar ko‘payishu bo‘yicha asosiy sabablarni va mavjud muammolarni tahlil qiladigan bo‘lsam;

- *o‘zaro kelishmovchilik - 67,4 foiz;*
- *boshqa oila qurib yashayotganligi - 6 foiz;*
- *farzandsizlik - 4,7 foiz;*
- *tarafning boshqa davlatga chiqib ketganligi - 3,8 foiz;*
- *uzoq vaqt birga yashamaganligi - 2,9 foiz;*
- *xiyonat va boshqa sabablar - 2,8 foiz.*

Ko‘rib turganimizdek 67,4% oilalar o‘zaro kelishmovchilik sababli ajrashmoqdalar. O‘zaro kelishmovchilik deb aytishimiz mumkin maishiy hayotimizda yuz beradigan kichik to‘rtishuvlar, bir-birini tushunmaslik, fikrlarining bir joydan chiqmasligi, dunyo qarashlarning har xil ekanligi misol bo‘lishi mumkin.

Oilalarni to‘liqligicha saqlab qolishning va tirikyetim farzandlar sonini kamaytirish uchun nafaqat davlat yoki davlat tashkilotlari balki o‘sha davlatning xalqi ham birdek ajrimga qarshi kurashishi lozim. Ajrimlar sonini kamaytirish turli hil yo‘nalishlar orqali va bir qancha taqiqlar bilan amalga oshirish imkoniyati mavjud. Hozirgi kunda eng rivojlangan va dunyo bo‘yicha ahamiyatli davlatlardan biri bo‘lgan Niderlandiya, Italiya kabi davlatlarda ajrim jarayoni o‘ta murakkab va deyarli ilojisiz

hisoblanadi, sababi ajrashish uchun ularning qonunchiligida ba'zi bir taqiqlovchi normalar mavjud. Biro, bu taqiqning salbiy tomonlari ham mavjud, ya'ni aholisining katta qismi qonuniy nikohsiz yashab kelayotgani yoki bo'lmasa nikoh qurish yoshi cho'zilib ketayotgani ham salbiy oqibatlari hisoblanadi. Aynan shu holatlarni inobatga olgan holda ushbu davlatlarda nikohdan o'tish ham ajrashish ko'rsatkichlari ham nisbatan yuqori emas.

Oilalarning parokanda bo'lishiga 100 lab sabablar keltirishimiz mumkin, ammo mening fikrimcha birinchi sabab va muammo bu aynan O'zbekiston misolida oladigan bo'lsam, farzandini majburlab turmushga berish hali oila qurishga tayyor bo'lmasidan avval, yigitlarni ko'ngli bo'lmasa ham ota-onasi tomonidan tanlangan qizga uylantirish, mavjud qadriyatlar sababli qiz faqat ota-onasi tomonidan tanlanishi, yoki bo'lmasa qarimdoshlik, do'stlik munosabatlarini yaxshilash maqsadida tuzilayotgan oilalar ham ko'pga bormasdan ajrashishmoqda. Barchamizga birdek ma'lum, oila qurishga majburlash qonuniy taqiqlanadi va inson erkinligini buzish hisoblanadi, undan tashqari qarimdoshlar o'rtasida tuziladigan nikohlar kelajak avlodning sog'lig'iga salbiy ta'sirini ko'rsatishi tibbiyot jihatdan isbotlangan.

Ikkinchi sababi esa bu oila barpo etilgandan keyingi holat, ya'ni kattalarning doimiy aralashuvi natijasida ham yosh oila o'rtasida turli hil kelishmovchiliklar kelib chiqmoda. Kattalar tomonidan yoshlarga doim to'g'ri maslahat berilgani va ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirilgani, albatta judayam quvonarli holat, ammo hozirgi kunga kelib kichik bir ahamiyatsiz narsalar tufayli va no o'rin aralashuvlar natijasida ham katta muammolar kilib chiqib ohiri ajrim bilan tugayotgan holatlar ham kam emas. Shu sababli ham yoshlarga erkin tanlov qilish imkoniyatini berish va kerakli vaqtda zarur maslahatlar bilan ularni qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Oila munosabatlarini ahamiyatini oshirish va ajrimlar sonini kamaytirish uchun takliflarim quyidagilardan iborat;

1. Ajrashish yo'lida turgan oilalar bilan tajribali va oilani muqaddas dargoh ekanligini anglata oladigan yetuk mutaxassis psixologlar ishlashi shart.

2. Oila qurishdan avval yoshlarni hohish istaklarini inobatga olish va mustaqil tanlovni amalga oshirishlari uchun imkoniyat yaratib berish.

3. Ajrim jarayoning har bir bosqichida mediatsiyani aralashuviga to'liq imkoniyat yaratib berish va mediatsiya sohasini ahamiyatini oshirish.

4. Ajrim uchun to'lanadigan davlat boji miqdorini ko'paytirish. Sababi ba'zi bir oilalar bir - birini qo'rqitish maqsadida ham sudga ariza bilan murojaat qilishmoqda.

5. Aniq bir sabab ko'rsatilmagan arizalarni rad etish.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, ajrim sabablarini faqat ilmiy yoki statistik sonlar bilan o'rganish kutilgan natijalarni taqdim etmayapti. Shuni inobatga olgan holda ijtimoiy hayotda oilalarda mavjud bo'lgan muammolarni o'rganish, tahlil etish va ularga ijobiy yechim berish orqali ham ajrimga qarshi kurashish mumkin. Yana bir muhim jarayon bu yosh avlodga oilaning qanday ma'suliyatli bosqich ekanligini anglatish va ularni oila qurish jarayoniga ham ruhan ham jismonan tayyorlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nikoh milliy va xorijiy tajriba, axborot - tahlili material. Gulruh Mamaraimova.

2. Oila kodeksi.

3. Jinoyat kodeksi.

4. <https://cyberleninka.ru/article/n/oilalarda-ajralish-va-uningoqibatlarini/viewer>